

**SARF ILMINING TA'RIFI VA BOSHQA ARAB TILI
ILMLARI BILAN BOG'LIQLIGI****Supiyev Abdurahmon***Imom Buxoriy nomidagi Toshkent**Islom Instituti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Sarf ilmi arab tilining morfologiyasini o'rganadigan fan bo'lib, so'zlarning ildizi, grammatik shakllari va o'zgarishlarini tahlil qiladi. Ushbu fan arab tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, til tizimini chuqur anglashga imkon yaratadi. Ibn Jinniy, Sibavayh, Zamaxshariy kabi olimlarning ishlari bu ilmning rivojiga katta hissa qo'shgan. Sarf qoidalarini mukammal egallash arab tilining grammatik tuzilishini to'g'ri tushunishga va amalda qo'llashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: sarf ilmi, morfologiya, arab tilshunosligi, grammatik o'zgarishlar, Ibn Jinniy, Sibavayh, Zamaxshariy.

Annotation: Sarf is the study of Arabic morphology, focusing on word roots, grammatical forms, and transformations. It is a key discipline in Arabic linguistics that enables a deep understanding of the language's structure. The works of scholars like Ibn Jinniy, Sibawayh, and Zamakhshari have significantly contributed to its development. Mastering sarf rules is essential for correctly comprehending and applying Arabic grammar.

Keywords: sarf, morphology, Arabic linguistics, grammatical transformations, Ibn Jinniy, Sibawayh, Zamakhshari.

Аннотация: Наука сарф изучает морфологию арабского языка, анализируя корни слов, их грамматические формы и изменения. Это важное направление арабской лингвистики, которое позволяет глубже понять структуру языка. Работы таких учёных, как Ибн Джинний, Сибавейхи и Замахшари, внесли значительный вклад в развитие этой дисциплины. Глубокое изучение правил сарфа помогает правильно понимать и применять арабскую грамматику.

Ключевые слова: сарф, морфология, арабская лингвистика, грамматические изменения, Ибн Джинний, Сибавейхи, Замахшари

Til har qanday jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u inson tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi asosiy vositadir. Har qanday tilni chuqur va mukammal o'rganish uchun uning fonetikasi, morfologiyasi (sarfi), sintaksisi (nahv), leksikasi va uslubiy jihatlarini keng qamrovli o'rganish zarur. Xususan, sarf ilmi – tilshunoslikning eng qadimiy va muhim sohalaridan biri bo'lib, u so'zlarning ichki tuzilishini, yasallish qonuniyatlarini, grammatik shakllarini va ularning o'zgarishlarini o'rganadi.

Sarf (arabcha: صرف) soʻzi lugʻaviy jihatdan “oʻzgartirish”, “aylantirish”, “tashkillashtirish” degan maʼnolarni bildiradi. Ilmiy nuqtayi nazardan esa, sarf ilmi – soʻzlarning ildizidan turli grammatik shakllarni yasashini, ularning zamon, shaxs, son, jins kabi grammatik kategoriyalarda oʻzgarishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimidir.

Arabtilshunosligi boy va uzoq tarixga ega boʻlib, unda tilning turli qatlamlarini oʻrganishga bagʻishlangan koʻplab ilmiy ishlanmalar va nazariy yondashuvlar mavjud. Ushbu tilshunoslik maktabining oʻziga xos jihatlaridan biri tilni grammatik, semantik va fonologik jihatdan chuqur oʻrganishga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Arab tilining murakkab morfologik tuzilishi va uning oʻziga xos grammatik qonuniyatlari tilshunoslik tadqiqotlarining muhim yoʻnalishlaridan birini, yaʼni morfologiyani shakllantirgan. Morfologiya soʻzlarning morfemik tarkibi, fonologik oʻzgarishlari va grammatik tuzilishini oʻrganish bilan shugʻullanib, til tizimining ichki qonuniyatlarini aniqlash va uni amalda qoʻllashga imkon beradi.

Sarf ilmi turli maʼnolarni anglatadigan kalimalarning turlarini oʻrgatadigan ilmdir. Chunki, arab kalimalari xilma-xil maʼnolarni anglatish uchun turli koʻrinishda boʻlib, tuslanib keladi.

Bu fanni birinchi ijod qilgan olim Muʼoz ibn Muslimin al-Harrodir. Bu ilmning mavzusi arab tilining kalimalaridir. Bu fanda kalimalarning zotiga (oʻziga) tushadigan eʼlol (harfi illatni bir-biriga almashtirish), tazʼiyf (ikkilantirish) va imola (alifni “yo”ga moyil qilib oʻqish) va nisbat (qaratish, tegishli qilish) va boshqa holatlardan bahs qilinadi. Bu ilmni oʻqishdan asosiy maqsad muftadiylarning, yaʼni oʻqishni yangi boshlaganlarning zehniga lafzda boʻladigan holatlarni bildirishdir. Shuning uchun bu ilmni oʻqish muftadiylarga, lozim va zarurdir.

Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy esa sarf va lugʻat ilmlarining chuqur bilimdonlaridan biri boʻlib, bu sohada muhim poydevorlar yaratgan. U tomonidan yozilgan “Kitob al-ʼAyn” asari arab tilidagi ilk ensiklopedik lugʻat hisoblanadi. U feʼl vaznlari va ildiz tizimini tahlil qilib, 15 ta asosiy vaznlar tizimini ishlab chiqdi. Uning yondashuvi nafaqat morfologik, balki fonetik jihatlarini ham oʻz ichiga olgan boʻlib, bu jihatdan arab tilining tovushiy tarkibiga asoslangan tahlillar bilan mashhurdir.

Sibavayh nomi arab tili grammatikasining eng mashhur allomalari qatorida turadi. U tomonidan yozilgan “Al-Kitob” asari, garchi asosan nahv ilmi haqida boʻlsa-da, sarfga oid juda koʻplab ilmiy izoh va tahlillarni oʻz ichiga oladi. U soʻz shakllari, feʼl va ismning tuslanish qoidalari, zamon va sigʻa (shakl) jihatlarini chuqur yoritgan. Ayniqsa, uning feʼl vaznlari haqida bergan maʼlumotlari keyinchalik barcha grammatik maktablar tomonidan qabul qilingan.

Ibn Jinniy esa sarf ilmini fonetik asosda tahlil qilgan yirik mutafakkir hisoblanadi. Uning “Al-Xasāʼis” nomli asari arab tilining fonetik va morfologik tuzilishini oʻrganuvchi eng chuqur tahliliy manbalardan biridir. Ibn Jinniy arab tili

tovushlari va morfologiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib bergan va so'zlarning shakli orqali ma'no yetkazish jarayoniga alohida e'tibor bergan.

Zamaxshariy ham sarf ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardandir. U nahv va balog'at ilmlari bilan birga morfologiyani ham chuqur o'rgangan. Uning "Al-Mufasssal" asarida fe'l va ism shakllari, ularning qo'llanishi, uslubiy va semantik xususiyatlari haqida mufasssal izohlar keltirilgan.

Zamaxshariy sarfiy o'zgarishlar orqali ifoda kuchini oshirish mumkinligini ilmiy asosda ko'rsatib bergan.

Ibn Malik esa sarf qoidalarini yodlashni osonlashtirish maqsadida mashhur "Alfiya" she'rini yozgan. Bu asar 1000 baytdan iborat bo'lib, nahv va sarf qoidalarini poetik shaklda ifodalagan. Ibn Malik fe'l va ism shakllarini qat'iy grammatik tartibda bayon qilgan va bu asar asrlar davomida musulmon dunyosida asosiy grammatik darslik sifatida o'rganilgan.

Ibn Hishom al-Ansoriy va Imom Suyutiy kabi yirik grammatiklar esa sarf ilmini tafsir, hadisshunoslik, fiqh va balog'at kabi boshqa islomiy fanlar bilan bog'lab o'rganishga alohida hissa qo'shgan. Ular sarf qoidalarining Qur'on oyatlarini tushunishdagi o'rnini ko'rsatib, arab tilidagi morfologik shakllar tafsir ilmidagi ma'no talqinlariga qanday ta'sir qilishini chuqur tahlil qilganlar.

Bu ilmning asosiy mavzusi arab tilidagi kalimalar, ya'ni so'zlar va ularning shakllaridir. Har bir kalimaning ildizi, undan yasaluvchi fe'l (fi'l), ism (ism), sifat (sifa), zarf (zarf) kabi so'z turkumlariga aylanishi, ularning zamonga, shaxsga, jinsga yoki boshqa grammatik shakllarga ko'ra o'zgarishi sarf ilmining asosiy o'rganish obyekti hisoblanadi. Bu fan yordamida til o'rganuvchi o'zlashtirayotgan so'zlarning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki grammatik tuzilishini, turli holatlarda qanday shakllanishini chuqur tushunishga erishadi.

Shu boisdan, sarf ilmi islom olamida har doim muhim o'rin egallab kelgan. Undan tajvid, qiroat, fiqh, tafsir, va boshqa ko'plab diniy-ilmiy yo'nalishlarda keng foydalanilgan. Ushbu ilmni mukammal egallash orqali talaba nafaqat arab tilini to'g'ri o'rganadi, balki islomiy bilimlarni chuqur tahlil qilish salohiyatiga ham ega bo'ladi.

Kalima (so'z)larning siyg'alari, ya'ni harflari va harakatlarini qanday ravishda o'zgarishi va shu o'zgarishlar tufayli kalimalardagi ma'nolarni o'zgarishini tushuntiradigan ilmga "sarf ilmi" deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, sarf ilmi turli xil ma'nolar anglanishi uchun kalimalarni har xil aytilishini o'rgatadi.

Kalima – ma'noli so'zdir. Masalan: مَسْجِدٌ، مَكْتَبٌ، إِمَامٌ kabi. Arab tilida ishlatiladigan kalimalar uch qismdan iboratdir: Ism; Fe'l; Harf.

Ism – uch zamonning biriga tegishli bo'lmay, o'zidan ma'no anglatgan kalimadir. Masalan: قَلَمٌ va كِتَابٌ kabi.

Fe'l – uch zamonning biriga dalolat qilib, o'zidan ma'no anglatgan kalimadir.

Masalan: ضَرَبَ – urdi u bir erkak, o'tgan zamonda

Harf – o'zidan ma'no anglatishda boshqa bir kalimaga muhtoj bo'ladi.

Masalan: سَافَرْتُ مِنَ الْمَدِينَةِ إِلَى الْقَاهِرَةِ – “Madinadan Qohiraga safar qildim”, jumlasida (gap)dagi مِنْ va إِلَى harflari kabiki, (-dan) va (-ga) ma'nosida bo'lib, yolg'iz holda kelsa ma'no anglatmaydi.

Kalimaning juz'lari (qismlari) deganda, مَسْجِدٌ degan kalimadagi م . س . ج . د harflari va bu harflarning ost va ustidagi harakatlar, ya'ni zamma, fatha, va kasralarning borligi tushuniladi.

Ilmiy jihatdan olganda, sarf – so'zlarning asl ildiz shakllaridan turli ma'no va grammatik yuklama beruvchi shakllarni hosil qilish jarayonlarini o'rganadi. Bu jarayon so'z yasalishi, so'zlarning zamon, shaxs, jins, son va boshqa grammatik kategoriyalarda ifodalanishini o'z ichiga oladi.

Misol uchun, arab tilida “كُتِبَ” (kataba – u yozdi) fe'li uchta harfdan – “ك”, “ت”, “ب” iborat. Sarf ilmi shu ildizdan “kitāb” (kitob), “kātib” (yozuvchi), “maktab” (maktab) kabi so'zlarni qanday shakllanishini o'rganadi. Bu tizim morfologik tahlil asosida amalga oshadi.

Sarf ilmi predmeti – so'zlarning morfologik tuzilmasi, ya'ni fe'llar va ismlarning yasalishi, tub va hosila so'zlar, so'zlarning grammatik shakllanishi, so'z yasovchi affikslar (qo'shimchalar) va ularning funksional yuklamalaridir.

Shuningdek, sarf ilmi orqali so'zlar tuzilishi, yasalishi, shakl jihatidan o'zgarishi va so'z yasovchi vositalarning grammatik tahlili ham amalga oshiriladi. Bu esa tilshunoslikda morfologiya fanining markaziy qismiga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Xolmanova. Tilshunoslik nazariyasi darslik. – Toshkent: 2020.
2. Sayfullayeva R.R, Abduzalova M.Q, Mamadaliyeva N.S, Yo'ldasheva D.N. Tilshunoslikka kirish: Darslik –Toshkent: 2020.
3. Mirqobil Hasanov. Arab tilining boshlang'ich fonetika kursi. “Zilol-buloq” nashriyoti. Toshkent – 2020.
4. S. Xasanov. Tilshunoslik ta'limotlar ta'rixi. O'rta asr. Leningrad: 1981.
5. Turabov. A. M. “Umumiy tilshunoslik” o'quv qo'llanma: – Samarqand. 2020.